



## JAHONDA O'QITUVCHILAR MEHNAT FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

**Pirnazarov Xayrulla Salim o'g'li**

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani xalq  
ta'limi bo'limi mudir o'rinbosari  
O'zbekiston respublikasi iqtisodiy  
taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish  
vazirligi huzuridagi biznes va tadbirkorlik  
oliy maktabi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7145976>

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchilar mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar shuningdek ushbu omillarning xalqaro ta'lim tizimidagi umumiy tavsifi tahlil qilingan va kasbiy faoliyatning ijobiy omillari ushbu masalaning yechimloari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlat: talim tizimi, o'qituvchi, malaka, kasb deformatsiyasi, tasir omillari, maktab, umumiy o'rta talim.

Yangi O'zbekiston va uning mustahkam poydevori ta'lim muassasalarida yaratilishini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanishi" ga urg'u berdi. Ta'limda an'anaviylik ko'p hollarda o'zini oqlamay qo'ydi. To'g'ri an'anaviy ta'lim tufayli ham fan-texnika va texnologiyalar qisman rivojlanganligini inkor etib bo'lmaydi. Ammo rivojlangan mamlakatlar tajribasi mamlakatni kompleks rivojlantirishning asl mohiyati innovatsiya va innovatsion jarayonlarga bevosita bog'liqligini isbotlab turibdi. Shu nuqtai-nazardan ta'lim tizimiga innovatsiyalarni keng tadbiiq etish zarurati allaqachon kelib etdi. Afsuski, bunga go'yoki ancha yillar oldin kirishilgandek tuyulsada, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida esa natija – ta'lim samaradorligi sezilmayapti. Shunchaki, o'qituvchilar dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llashning noananaviy usullarini nomigagina, o'sha texnologiyaning mohiyatini aniq tasavvur etmagan holda urinishyaptilar xolos. Axir, natija bo'lmaganidan keyin boshqacha xulosa bo'lishi ham mumkin emasda! Ta'lim samaradorligining ta'minlanmaslik sabablaridan asosiysi – maktab rahbarlarining ta'lim muassasasini boshqarish malakasining etarli emasligi oqibatidadir. Bu bora hududiy ta'lim boshqaruv organlarining ishlari talablar darajasida tashkil etilmagan. Maktab o'qituvchilariga metodik yordam berish maqsadida qabul qilingan metodistlar o'z vazifa-burchlarini to'la-to'kis amalga oshirmayaptilar. Nomiga metodistu aslida esa mutlaqo boshqa topshiriqlarni bajarish bilan ovora.

Jahonda ta'lim shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim





konsepsiyasida «sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini yuqori darajada egallashni kafolatlaydi», deb qayd etilgan. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud ta'lim tizimini jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlari bilan uzviy bog'lash zarur vazifaga aylanmoqda.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIC TAHLIL

Umumta'lim maktab o'qituvchilarining pedagogik va ilmiy faoliyatini samarali tashkil etishning maqbul pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim dolzarblikni taqozo qiladi. Shuningdek, o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim tizimi talablariga moslashuvini ta'minlash, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiya muammolarini bartaraf etishning pedagogik imkoniyatlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar ko'rsatadiki, juda ko'p hollarda darslar nomigagina (og'izda amalda emas) yangi pedagogik texnologiyani qo'llashdan o'rniga, eskicha past saviyadagi an'anaviy metodlarda olib borilayotganligi hech kimga sir emas.

Natija ham shunga yarasha. Bu borada ota-onalarning mas'uliyati ham talab darajasida emasligi masalani yanada qiyinlashtiradi.

Bugun jamiyat uzluksiz ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari oldida yuksak kechiktirib bo'lmaydigan talablarni qo'ymoqda. Ana shunday talablarga javob bera oladigan kadrlarga sharoitlar yaratish va ularni qo'llabquvvatlashni joriy etish lozim.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Umuman olganda xorijiy tajribalarga nazar soladigan bo'lsak, pedagog shaxsiy mehnat faoliyatiga tasir qiluvchi omillar yoki kasbiy deformatsiyasining paydo bo'lish mexanizmining tarkibiy tuzilmasini quyidagicha tavsiflash mumkin. Tadqiqotlarimiz natijasida o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi buzilishlar to'g'risidagi kasbiy deformatsiyaning quyidagi oqibatlarini keltirishimiz mumkin :

- yoshga bog'liq ijtimoiy me'yorlarga nisbatan kasbiy rivojlanishdagi kechikish (kasbni noto'g'ri tanlash);
- kasbiy tajribaning yo'qligi, zarur axloqiy g'oyalar, professionallik va malakaning yetishmasligi kabilar;
- kasbiy faoliyatni soddalashtirish, motivatsion yetishmovchilik, ishdan qoniqmaslik;





- ish sifatining pasayishi va axloqiy ko'rsatmalarining kamayishi;
- kasbiy rivojlanishdagi individual aloqalarning nomuvofiqligi;
- kasbiy ma'lumotlarning zaiflashishi (kasbiy qobiliyatning pasayishi, ish samaradorligining pasayishi kabilar);
- mehnat va kasbiy mahoratni, professionallik va malakani yo'qotish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, mehnat unumdorligi va ishdan qoniqishning keskin pasayishi;
- kasbiy rivojlanishning ijtimoiy va individual normalaridan chetga chiqish, shaxsiy deformatsiyaning namoyon bo'lishi (hissiy charchash, odamlarni manipulyatsiya qilish istagi, kasbiy ongning deformatsiyasi kabilar);
- kasb kasalligi tufayli kasbiy rivojlanishning to'xtashi (ish vaqtini uzayishi yoki doimiy ishlashga yaroqsizligi).

#### XULOSA

Bir so'z bilan aytganda jahonda o'qituvchilar mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar masalasida so'z yuritganda ko'plab umumiy o'rta talim tizimiga oid dasturiy va sistematik tuzilmalar bilan tanishish va bu haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lish lozim, albatta kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning salbiy va ijobiy guruhlariga ajratilishi ham maslaaga tahliliy-tanqidiy qarashga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan kasbiy deformatsiyaning ijobiy omillariga:

- Pedagogning umumiy mahorati va malaka talablariga mosligi;
- Iqtisodiy taminot va rag'bat tizimining maqsadga muvofiq yo'lga qo'yilganligi;
- Talim tizimidagi o'qituvchi maqomining qonuniy va huquqiy jihatdan mustahkamlanganligi;
- Yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodologiyaning talim tizimiga joriy etilishi va amaliyotda qo'llanishi;
- Pedagogning shaxsiy huquqlari va majburiyatlari, ularning suistemoq qilinishi yoki poymol etilishi jarayonlariga nisbatan qat'iy chora-tadbirlarning ko'rilganligi.

Yuqoridagi islohotlar tabir joiz bo'lsa tadbirlarning tizimda tadbir etilmasligi yoki aks tasiri salbiy omillar sirasiga kiradi. Albatta har doim ham o'qituvchi maqomi buyuk, kasb mashaqqati va mehnat faoliyati qiyin bo'lgan.

Shu etibordan ul;arning mehnat faoliyatini samarali tashkil qilish uchun moss hart-sharoit yaratish va munosib hisob-kitob qilish maqsadga muvofiqdir.





**Adabiyotlar:**

1. S.T. Turg'unov, B.X.Doniyorov, D.M.Otajonova "O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari" T.: 2011. 51-58 b.
2. R.G'. Safarova "Istiqboldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari" T.: 2009.
3. Sh. Po'latov "Ta'lim menejmenti, yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi" T.: 2019.
4. B. Ziyamuhamedov "Pedagogika" T.: 2014. 171-177 b.
5. Эрназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихсуа профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. Педагогй & Псйхологй Теорй анд прастисе Интернационал Ссиентифис Жоурнал, 6(26), 52-55.
6. Жабборова О. М. (2020). Психологические функции, формирууищие художественное сознание студентов. Педагогические науки, 1(46), 144-145.
7. Исмаилова Д. М., & Каримов С. Ш. (2019). Актуальные проблемы технологического образованиуа школников. ВЫСШАУа ШКОЛА Научнопрактический журнал, (22), 6-8.
8. Rakhimov Otanazar. (2016). Theoretical Basis for Development Ecological Worldview as a Part of Students' Natural Scientific Worldview. Eastern European Scientific Journal, 5, 20-24.
9. Жабборова О. М. (2020). Психологические функции, формирууищие художественное сознание студентов. Педагогические науки, 1(46), 144-145.
10. Mardonov S., Toshtemirova S., Ahmadjonov B., & Koshanova N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. International Journal of Psychological Rehabilitation, 24(07), 8104-8111.

